



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 316 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish	91
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
<i>Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.</i>	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi	101
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
<i>Allanov Shuxrat Qilichovich</i>	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
<i>Fayziyev Baxodir Baxshilloevich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
<i>Imamova Nilufar Zabiylulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
<i>Eshonqulova Ma'suda Habibovna</i>	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	123
<i>Islomova Ozoda Isomiddin qizi</i>	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi	127
<i>Abdullayeva Maftuna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
<i>Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi</i>	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
<i>Axmadova Malika</i>	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
<i>Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li</i>	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
<i>D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
<i>G'. Yu. Eshmirzayev</i>	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari	157
<i>Kamolova Nargiza Ibragimovna</i>	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
<i>Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida	171
<i>Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
<i>Raximova Nigora Atakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
<i>Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna</i>	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
<i>Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna</i>	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari Yarmatova Sanobar Jo'rayevna	189
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar Norquvatova Diyora Davron qizi	193
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	197
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих Зохилов Нодирбек Улугбекович	201
Kimyo fanini o'qitishda muommali ta'lim metodining o'рни va amaliy ahamiyati Kultayev Kuzibay Kazakbayevich	205
Rolli o'yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta kasbga yo'naltirishning pedagogik shart-sharoitlari Niginabonu Fayzullayeva	209
Boshlang'ich sinflarda PIRLS va TIMSS talablariga mos ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik asoslari Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Mamedova Maxfuza Erkinovna, Omonova Gulandom Davlatovna	214
Raqamli texnologiyalar vositasida virtual laboratoriyalarni o'qitish Tilovova Turdixol Baratovna	219
Hosila va uning tadbirlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li	222
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash usullari Dauletnazarova Ainura Kayirbaevna	228
O'quvchilar o'rtasida bullingni oldini olish va pedagogik-psixologik omillarni bartaraf etish yo'llari U. A. Alibayeva	233
Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlari O. K. Kadambayeva	236
Bo'lajak logopedlar rinolaliyani og'ir nutq nuqsoni sifatida o'rganishda qo'llaniladigan topshiriqlarning ahamiyati Achilova Sevara Djasirkulovna	240
Tarjima mashqlari orqali nemis tili (DaF) darsida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish Musayeva Guzal Ne'matillayevna	243
O'tkir Rahmat she'rlari lingvopoetikasi Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	247
Проблемы и тенденции развития грамматики русского языка Юлдашев Баходир Бекмуратович	250
O'smir taekvondochilarning qo'l-oyoq kuchining an'anaviy mashg'ulotlar davomida o'sish sur'ati A. X. Norov	253
Инновационные педагогические технологии в преподавании русского языка и проблемы повышения качества подготовки кадров Адилова Солияхон	259
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish Muminjonova Muhayyo G'ulomovna	263
Nutqning ijtimoiy-psixologik va lingvistik xususiyatlari Sh. I. Nurmatova, G. B. Xujamova	268
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish va o'quv materiallarining ahamiyati Abdullayeva Uljalg'as Tulegen qizi	271
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy pedagogik kompetensiyani aniqlash metodologiyasi D. O'. Yo'ldosheva, J. A. Jovlijev	274



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga badiiy adabiyot vositasida ijtimoiy xulq madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati.....	278
Daminova Shoxista Farxodovna	
Using the Method of Mnemonics in Teaching English Idioms: Enhancing Retention and Comprehension in EFL Learners	281
Dusmamadova Gulsum Shukhratovna	
Sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan matematika ta'limining o'quvchilar natijalariga ta'siri	284
Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna	
Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda axborot oqimlarining ijobiy ta'sirlari.....	288
Karimova Umida Alijon qizi	
Viruslar replikasiyasining molekulyar asoslari va uni o'qitishda "Case-study" metodining samaradorligi.....	293
O'. E. Xo'janazarov, B. B. Ishmo'minov, M. Fayzieva, M. Xayitmuratova	
Psixodiagnostik metodikalar asosida talabalarning xarakter aksentuatsiyasining gender farqlarini o'rganish	298
Sh. Allanazarova, R. Janabaeva	
"Muhofazaga olingan hududlar" modulidan talabalarning bilimni nazorat qilishga mo'ljallangan nostandart testlardan foydalanish metodikasi	301
Saidmuratov Shoxid Xusanovich, Ishmo'minov Bobur Botir o'g'li, Abduvohidova Madina Ilhomjon qizi, Matkomilova Feruza Xasan qizi	
Ergonomik yondashuv asosida registrator ofisi ish jarayonlarini modellashtirish va takomillashtirish	307
To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li	
Sport turlarini tasniflash va sport mashg'ulotlarini kompleks monitoring qilishning ilmiy-metodologik asoslari	311
Ilhomjon Axmedovich Tursunaliyev	



SPORT TURLARINI TASNIFLASH VA SPORT MASHG'ULOTLARINI KOMPLEKS MONITORING QILISHNING ILMIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Ilhomjon Axmedovich Tursunaliyev

O'zbekiston davlat sport akademiyasi rektori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada sport turlarini ilmiy asosda tasniflashning nazariy-metodologik jihatlarini hamda sport mashg'ulotlarini kompleks monitoring qilishning ahamiyati tahlil etilgan. Sport turlarining musobaqa faoliyati xususiyatlari, yetakchi jismoniy sifatlar va psixofiziologik talablar asosida guruhlanishi mezon sifatida ko'rib chiqilgan. Ilmiy natijalar sportchilarni ixtisoslashtirish, mashg'ulot yuklamalarini individuallashtirish hamda sport natijalarini barqaror ravishda oshirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: sport turlari tasnifi, xalq o'yinlari, jismoniy sifatlar, sport tayyorgarligi, monitoring, musobaqa.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological aspects of the scientific classification of sports and the importance of comprehensive monitoring of sports training. The criteria for grouping sports based on the characteristics of competitive activity, leading physical qualities, and psychophysiological requirements are considered. The scientific results create a basis for the specialization of athletes, the individualization of training loads, and the sustainable improvement of sports performance.

Key words: classification of sports, folk games, physical qualities, sports training, monitoring, competition.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методологические аспекты научной классификации видов спорта и важность комплексного мониторинга спортивной подготовки. Рассматриваются критерии группировки видов спорта на основе характеристик соревновательной деятельности, ведущих физических качеств и психофизиологических требований. Научные результаты создают основу для специализации спортсменов, индивидуализации тренировочных нагрузок и устойчивого повышения спортивных результатов.

Ключевые слова: классификация видов спорта, народные игры, физические качества, спортивная подготовка, мониторинг, соревнования.

KIRISH

Jahon miqyosida rasmiy tasdiqlangan sport turlari soni doimiy ravishda yangi turlarning paydo bo'lishi bilan ortib bormoqda. Biroq xalqaro miqyosda tan olingan va turli federatsiyalarga birlashgan yuzlab (taxminan 800 dan ortiq) sport turlari mavjud bo'lib, ular milliy va xalqaro sport turlariga bo'linadi. Mamlakatimizda sport turlari va ularning tarmoqlarini e'tirof etish reestriga kiritilayotgan sport turlariga sport federatsiyalari (uyushmalari), assotsiatsiyalar tomonidan 250 dan ortiq sport turlari kiritilgan bo'lib, ular musobaqa qoidalari, texnik-taktik harakatlar majmuasi, musobaqa faoliyatining mazmuni hamda baholash mezonlari bilan tavsiflanadi. Sport turlarining bunday xilma-xilligi ularni ilmiy asosda tasniflash, ya'ni ma'lum belgi va mezonlarga ko'ra guruhlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Respublikamizda yuqorida keltirilgan barcha sport turlari quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

1. Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari;
2. Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilmagan sport turlari;
3. Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari;
4. Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlari dasturiga kiritilmagan adaptiv sport turlari;
5. Milliy sport turlari;
6. Xalq o'yinlari (etnosport).

Sport turlarini ilmiy asosda tasniflash sportchilarni tayyorlash jarayonini samarali boshqarish, mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish hamda sport natijalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsad – sport turlarini tasniflashning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish va sport mashg'ulotlarini kompleks monitoring qilishning metodologik yondashuvlarini asoslab berishdan iborat. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va metodikasiga oid ilmiy ishlanmalar, xalqaro sport tashkilotlari materiallari hamda amaliy tajribalar manba sifatida o'rganildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport turlarini tasniflashning asosiy yondashuvlari. Har bir sport turi o'zining musobaqa shakli, maxsus harakat tarkibi, bellashuv qoidalari va musobaqa faoliyatiga baho berish usuli bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi. Matveev L.P. sport turlarini harakat faoliyatiga qarab 5 guruhga bo'lgan:

- *birinchi guruh* – jismoniy sifatlarni maksimal darajada talab qiladigan sport turlari bo'lib, sportchi o'z shaxsiy imkoniyatlariga qarab muvaffaqiyat qozonadi (boks, gimnastika, kurash, sport o'yinlari, yengil atletika va boshqalar);
- *ikkinchi guruh* – yuruvchi texnik vositalarni boshqarish bilan bog'liq sport turlari (mototsikl, avtomobil, samolyot, qayiq va boshqalar) bo'lib, bunda sport natijasi texnik vositalarga hamda ularni boshqarish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi;
- *uchinchi guruh* – maxsus qurollardan (miltiq, kamon va boshqalar) qat'iy cheklangan sharoitda nishonga tekkizishga asoslangan sport turlari;
- *to'rtinchi guruh* – model-konstruktorlik faoliyatini o'zaro taqqoslashga asoslangan turlar (aviamodel, avtomodel va boshqalar);
- *beshtinchi guruh* – abstrakt (mavhum) mantiqiy yo'l bilan g'alaba qozonishga asoslangan sport turlari (shaxmat, shashka).

Yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- *1-guruh* – davriy xarakterdagi harakat faoliyati bilan bog'liq sport turlari (suzish, eshkak eshish, yengil atletika, velosport va boshqalar);
- *2-guruh* – asosan portlovchi kuch sifatlarini namoyon etishni talab etuvchi sport turlari (sakrash, uloqtirish, og'ir atletika);
- *3-guruh* – asosan harakatlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq sport turlari (sport va badiiy gimnastika, akrobatika, suvga sakrash, batut, figurali uchish va boshqalar); 4-guruh – yakkakurash sport turlari (boks, barcha kurash turlari, qilichbozlik va boshqalar);
- *5-guruh* – sport o'yinlari (futbol, xokkey, basketbol, voleybol, suv polosi va boshqalar);
- *6-guruh* – ko'pkurash sport turlari (chang'i ikki kurashi, yengil atletika ko'pkurashi, zamonaviy beshkurash va boshqalar).

Bundan tashqari sport turlari medallar miqdoriga (oltin, kumush, bronza) qarab ham tasniflanadi. Yengil atletika, suzish, sport gimnastikasi, akademik eshkak eshish, boks va boshqalar medallar soni ko'p bo'lgan sport turlariga kiradi, biroq futbol musobaqalarida faqat bitta oltin, bitta kumush va bitta bronza medali uchun kurash olib boriladi. Sport turlarini musobaqa natijalarini belgilash usuli bo'yicha ham tasniflash mumkin. Sport turlari boshqa sport turlarida dam olishni tashkil qilishda yoki organizmni maxsus qayta tiklash tizimida, charchashga qarshi kurash omili sifatida, emotsional talablarni qondirishda va organizmning vaqtincha yo'qotilgan funksional imkoniyatlarini tiklashda qo'llaniladi.

Shuningdek sport turlari quyidagi mezonlar asosida ham tasniflanadi:

- raqib bilan o'zaro munosabatiga ko'ra – to'g'ridan-to'g'ri aloqa sport turlari (kurash, boks, dzyudo), bilvosita aloqa sport turlari (stol tennisi, badminton), individual sport turlari (yengil atletika, suzish), jamoaviy sport turlari (futbol, basketbol);
- sport tizimiga ko'ra – Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari, kiritilmagan sport turlari, Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan va kiritilmagan adaptiv sport turlari, ekstremal sport turlari, milliy sport turlari, xalq o'yinlari (etnosport).



Yetakchi jismoniy sifatlari asosida tasniflashda sport turlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- koordinatsion qobiliyat talab qiluvchi sport turlari (gimnastika, akrobatika);
- chidamlilikka asoslangan sport turlari (yugurish, suzish);
- tezlik-kuch sifatlari asoslangan sport turlari (og'ir atletika);
- taktik va tezkor qaror ustuvor bo'lgan sport turlari (futbol, jang san'atlari);
- sensor-reaksiya talab qiluvchi sport turlari (avtosport);
- intellektual sport turlari (shaxmat);
- ko'pkurash sport turlari (biatlon, beshkurash).

Demak, sport turlarini ilmiy tasniflash sport faoliyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, yetakchi jismoniy sifatlari asosida guruhlash sportchilarni ixtisoslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompleks monitoring tizimi sportchining holatini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi, bu esa mashg'ulot jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish uchun tasniflash va monitoring tizimlarini integratsiyalash zarur. Sport turlari, avvalo, musobaqa faoliyatida ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat darajasiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratiladi. Jumladan, ayrim sport turlarida musobaqa ishtirokchilari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri jismoniy aloqa mavjud bo'lib, bunda raqibning qarshiligini bevosita yengib o'tish asosiy omil hisoblanadi. Bunday sport turlariga kurash, boks, dzyudo, taekvondo kabi sport turlari kiradi. Ushbu sport turlarida musobaqa natijasi sportchining jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga ayrim sport turlarida bilvosita aloqa ustunlik qiladi. Bunda qilichbozlik, stol tenisi yoki badminton kabi sport turlarida raqib bilan bevosita jismoniy to'qnashuv mavjud bo'lmaydi, ammo musobaqa jarayoni qarshi harakatlarga tezkor va aniq javob qaytarishni talab etadi. Bu turdagi sport turlarida harakatlar tezligi, koordinatsiya, reaksiya va texnik aniqlik muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari sport turlarining yana bir muhim guruhi raqib aralashuvsiz bajariladigan musobaqa faoliyatiga asoslangan sport turlaridir. Yengil atletika, suzish, sport gimnastikasi kabi turlarda sportchi musobaqa harakatlarini mustaqil ravishda bajaradi va natija asosan uning individual imkoniyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi hamda texnik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Bu sport turlarida vaqt, masofa yoki bajarilgan harakatlarning sifati asosiy baholash mezonini hisoblanadi.

Alohida e'tiborga loyiq sport turlari sirasiga jamoaviy sport o'yinlari kiradi. Futbol, voleybol, basketbol, gandbol kabi sport turlarida musobaqa jarayoni nafaqat individual tayyorgarlik, balki jamoaviy o'zaro hamkorlik, taktik fikrlash va raqib qarshiligini jamoa bo'lib yengib o'tish bilan tavsiflanadi. Ushbu sport turlarida har bir o'yinchining harakati umumiy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu asosda shakllantirilgan yagona sport tasnifi sport turlarini ularning musobaqa faoliyati xususiyatlari, harakat tuzilmasi, energetik ta'minoti va psixofiziologik talablari bo'yicha tizimli ravishda guruhlash imkonini beradi. Bunday tasnif sportda ilmiy tadqiqotlarni olib borishda, sportchilarni ixtisoslashtirishda hamda mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir sport turi sportchidan ma'lum yetakchi sifatlarning ustuvor rivojlangan bo'lishini talab qiladi. Ushbu sifatlari bir sport turida asosiy rol o'ynasa, boshqa sport turlarida ikkilamchi yoki yordamchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli sport turlarini yetakchi jismoniy sifatlari ko'rsatkichlariga asoslanib tasniflash sport faoliyatining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi guruhga harakatlarni muvofiqlashtirishga yuqori talablar qo'yiladigan sport turlari kiritiladi. Akrobatika, sport gimnastikasi, suvga sakrash, figurali uchish kabi sport turlarida harakatlarning murakkabligi, ularning fazoviy-vaqt parametrlari aniqligi hamda estetik talablarga mosligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu sport turlarida sportchining vestibulyar apparati barqarorligi, propriozeptiv sezgirli va harakatlarni nozik boshqarish qobiliyati yetakchi ahamiyat kasb etadi. Kuch yoki tezlik ko'rsatkichlaridan ko'ra, natija asosan texnik mukammallik va koordinatsion tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Ikkinchi guruh yuqori tezlikda bajariladigan siklik harakatlar ustun bo'lgan sport turlari bilan tavsiflanadi. Yengil atletikaning yugurish yo'nalishlari, konkida uchish, velosport, chang'i sporti hamda suzish sport turlarida harakatlarning ritmik takrorlanishi, tezkorlik va maxsus chidamlilik asosiy rol o'ynaydi. Bu sport turlarida yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlari, energiya ta'minoti mexanizmlarining samaradorligi sport natijalarini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi guruhga tezkor-kuch sifatlarining ustun namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadigan sport turlari kiradi. Og'ir atletikada sportchi maksimal tashqi qarshilikni yengib o'tishi lozim bo'lsa, yengil atletikaning uloqtirish va itqitish turlarida doimiy massa bilan maksimal tezlanish hosil qilish muhim hisoblanadi. Ushbu sport turlarida mushak kuchi, portlovchi kuch, asab-mushak tizimining tezkor faollashuvi hamda biomexanik samaradorlik yetakchi ahamiyatga ega.

To'rtinchi guruh sport turlarida tezkor qaror qabul qilish va raqibga qarshi kurash jarayonida vaziyatni baholash qobiliyati asosiy rolni egallaydi. Sport o'yinlari va jangovar sport turlarida musobaqa faoliyati doimiy o'zgarib turuvchi sharoitda amalga oshiriladi. Sportchi raqib harakatlarini tez tahlil qiladi, taktik qarorlar qabul qiladi va harakat strategiyasini moslashtirib boradi, bu esa jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi guruhga markaziy asab tizimi va sezgi analizatorlarining yuqori darajada faoliyat yuritishini talab qiladigan sport turlari kiritiladi. Avtopoyga kabi sport turlarida sportchi tezkor vaziyatlarda oldindan ogohlantiruvchi va oldini oluvchi harakatlarni bajarishi zarur. Ushbu sport turlarida ko'rish analizatori faoliyati, reaksiya tezligi hamda diqqatni uzoq vaqt davomida jamlay olish sport natijasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Oltinchi guruh jismoniy harakatlar minimal darajada bo'lsa-da, markaziy asab tizimining maksimal zo'riqishini talab qiladigan sport turlari bilan tavsiflanadi. Shaxmat va shashka kabi sport turlarida sportchi muvaffaqiyati asosan mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish, xotira va psixologik barqarorlik bilan belgilanadi. Ushbu sport turlarida jismoniy yuklama past bo'lishiga qaramay, aqliy faoliyat intensivligi nihoyatda yuqori bo'ladi.

Yettinchi guruh esa bir vaqtning o'zida bir nechta jismoniy va ruhiy fazilatlarining uyg'un rivojlanishini talab qiladigan ko'pkurash sport turlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy beshkurash, biatlon kabi sport turlarida tezlik, chidamlilik, kuch va muvofiqlashtirish jarayonlari bir butun tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu sport turlarida sportchining ko'p qirrali tayyorgarligi va moslashuvchanligi uning asosiy ustunligi hisoblanadi.

XULOSA

Sportda tasniflash tizimi sportchining rivojlanishini bir tomonlama emas, balki kompleks yondashuv asosida baholash imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim sportchining jismoniy, texnik-taktik, psixologik va musobaqa tajribasiga oid ko'rsatkichlarini o'zaro uyg'unlikda tahlil qilishga sharoit yaratadi. Sportchining mavjud imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari yanada aniqroq belgilab olinadi, bu esa mashg'ulot jarayonini individuallashtirish va uzoq muddatli sport tayyorgarligini maqsadli rejalashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sport turlarini ustun jismoniy sifatlar hamda sport darajalari va unvonlari tizimi bilan uzviy bog'liq holda tasniflash sport tayyorgarligini boshqarishning ilmiy asoslangan yondashuvini shakllantiradi. Bu esa sportchilarni ixtisoslashtirish jarayonini optimallashtirish, mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirish va yuqori sport natijalariga erishish uchun mustahkam nazariy-metodik zamin yaratadi. Sport turlarini ilmiy tasniflash sport tayyorgarligini samarali boshqarish imkonini beradi. Yetakchi jismoniy sifatlar asosida guruhlash sportchilarni to'g'ri yo'naltirishda muhimdir. Sport darajalari va unvonlari tizimi sport natijalarini obyektiv baholashga xizmat qiladi. Kompleks monitoring sportchining jismoniy va psixologik holatini nazorat qilishning muhim vositasidir. Mazkur yondashuv sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun". 2026-yil 24-mart. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8093787>
2. O'zRSV, 2025-yil 5-sentabr, 01/1444-L-A-F-son buyruq.
3. Umarov D.X., Tojiboyev M.A., Xolmurodov L.Z. Sport nazariyasi: darslik. – T.: Ilm-fan nashriyoti, 2025. – 234 bet.
4. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник [для тренеров]: в 2 кн. / В. Н. Платонов. – К.: Олимпийская литература, 2015. – Кн. 1. – 680 с.
5. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты. – 4-е изд., испр. и доп. – СПб.: Издательство "Лань", 2005. – 384 с.: ил. – (Учебники для вузов. Специальная литература).
6. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания / В. М. Зациорский. – 5-е изд., стереотип. – М.: Спорт, 2020. – 200 с.
7. Bompa T. Periodization Training for Sports. – Human Kinetics, 2017. – 368 p.
8. Верхошанский Ю. В. Основы специальной силовой подготовки в спорте. – 3-е изд. – М.: Советский спорт, 2013. – 216 с.
9. Zatsiorsky V. Science and Practice of Strength Training. – 2012. – 327 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.